

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI**

« TASDIQLAYMAN »
Direktorlar kengashi raisi
L.X. Musadjanova
2025-y « 5 » 03



Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

STERILIZATSIYA VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

O'QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVChiLAR:

L.X.Musajanova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi direktori

N.A.Shoislamova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

TAQRIZChiLAR:

Z.Z.Imamova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

R.N. Mahmudova

Respublikada ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy amaliy tibbiy markazi markaziy zararsizlantirish bo'limi bosh hamshirasi

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 1 » 03

2/1 - sonli bayonnoma

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 5 » 03

2 - sonli bayonnoma

1.Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4310 - son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha meyoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e’tiborga olingan.Ishchi o‘quv dasturi “Tibbiy asbob va anjomlarni zamonaviy zararsizlantirish usullari” yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan. Dastur fanlar bloklariga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga

qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sogʻliqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari toʻgʻrisida maʼlumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va boʻlimlarni ketma-ketligini taʼminlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan oʻquv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

Oʻqish natijasida “Tibbiy-asbob va anjomlarni zamonaviy zararsizlantirish usullari” boʻyicha oʻrta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va koʻnikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirish. Oʻrta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari boʻyicha yetarli bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sogʻliqni saqlash tizimidagi oʻziga hosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash boʻyicha nazariy bilim va amaliy koʻnikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

1.2. Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish oʻquv jarayonini modulli tibbiy taʼlim tamoyili boʻyicha, zamonaviy, innovasion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy maʼlumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan oʻquv dasturi boʻyicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida koʻrsatiladigan profilaktik, tashhislash va davolash uchun kerakli amaliy koʻnikmalarni mustaqil qoʻllashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- sogʻliqni saqlash tizimidagi islohotlar va meʼriy hujjatlarni ish faoliyatida qoʻllay olishga oʻrgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash koʻnikmalarini yangilashva mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi oʻrtasida toʻgʻri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sogʻlom turmush tarzini qoʻllab-quvvatlash, oʻsib kelayotgan avlodni sogʻlomashtirish tadbirlarini yangilash;
- tibbiy-asbob va anjomlarni zamonaviy zararsizlantirish usullari haqida yangi maʼlumotlarni berish;
- DPM boʻlimlaridan qabul qilingan nosteril tibbiy asbob-anjomlarni va bikslarni roʻyxatga olish;
- bugʻli va issiq havoli sterilizatorning ishini va tarqatilgan steril bikslarni hisobga olishdagi meyoriy xujjatlarni yuritishni bilish;

- avtoklavlarni turlari, tuzilishi ishlash tartibi ish jarayonida avtoklav ko'rsatkichlarini nazorat qilish;
- avtoklavning ish jarayoniga bog'liq bo'lgan meyoriy hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish;
- sinamalarni (indikator)turlari va ularni qo'llash haqida bilim va ko'nikmalarini yangilash;
- sterillikni nazorat qilish uchun qo'llaniladigan ichki va tashqi sinamalar va termotestlarni qo'llash bo'yicha ko'nikmalarini yangilash;
- asbob uskunalari, bog'lov va boshqa materiallarni zararsizlantirishga tayyorlash va ularni natijalarini tahlil qilish.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dasturi bo'yicha davolash profilaktika muassasalarida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o'rta tibbiyot xodimlarining malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, Sterilizatsiyada xamshiralik ishi ya'ni, 144 soat o'qitilib, "Sterilizatsiyada hamshiralik ishi" (hamshiralar uchun malaka oshirish) yo'nalishi bo'yicha rejalashtirgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalari asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda sterilizatsiya faoliyatini amalga oshirish;
- sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida zararsizlantirish yordamini tashkil etish;
- Sterilizatsiya bo'yicha direktiv hujjatlarni o'rganish, meyoriy hujjatlarni yuritishni bilishi;
- aholi salomatligini saqlashda profilaktik tadbirlarni tashkil etish;
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, satinar-gigienik, profilaktik tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;
- Favkulodda xolatlarida bemorlar xolatini baholash, asosiy simptom va sindromlarni ajratish, og'ir va terminal xolatlarida, jarohatlarda, zaxarlanishlarda yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish, vrachgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

O'quv dasturining dolzarbligi amaliyotga asoslangan va muammolarga yo'naltirilgan yondoshuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan bo'lib, zamonaviy ilmfan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Dastur asosiy va eng yangi adabiyotlardan, chet el olimlarining tarjima qilingan adabiyotlaridan, milliy va jahon standartlari asosida tuzilgan me'yoriy hujjatlardan, shu bilan bir qatorda, tibbiy-asbob va anjomlarni zamonaviy zararsizlantirish xizmatini ko'rsatishdagi me'yoriy hujjatlar asosida tuzildi.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 soat, haftada 36 kredit).

1.7. O‘qish shakli:

- kunduzgi - o‘qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - o‘qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi: Mashg‘ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i va filialning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg‘ulotlar 09⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo‘ladi.

1.9. Malaka oshirishdan so‘ng: o‘quv kursni to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Sterilizatsiya va texnika xavfsizligi”

bo‘yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA’LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta’lim (natijalari)dan so‘ng tinglovchi kompetentsiyasi:

Tinglovchi “Sterilizatsiya va texnika xavfsizligi” (hamshiralar uchun) mutaxassisligi bo‘yicha malaka oshirish o‘quv dasturini o‘zlashtirishi natijasida mutaxassislikni xususiyatlaridan kelib chiqib, ixtisosligi bo‘yicha umumiy va malakaviy ko‘nikmalarini o‘rganadi va quyidagi kasbiy kompetensiyalari shakllanadi:

Umumiy kompetensiyalar: hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;

- Intizomiy, ma’muriy, fuqarolik javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo‘yicha o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish;
- hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirish qobiliyati takomillashadi;
- o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- markaziy zararsizlantirish bo‘limi va uning vazifalari, zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash, zararsizlantirishning turli usullarini, zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi prinsiplari bilan tanishadi;
- markaziy zararsizlantirish bo‘limida statistika xisoboti buyicha yuritiladigan xujjatlar to‘plamining yuritilish tartibi va rasmiylashtirish ko‘nikmalari takomillashadi;

Kasbiy kompetensiyalar:

- DPM bo‘limlaridan qabul qilingan nosteril tibbiy asbob anjomlarni va bikslarni ro‘yxatga olish;
- tibbiy asbob-anjomlarni sterilizatsiyadan oldin tozalashni;
- ultra binafsha lampasi bilan zararsizlantirish usullari ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi;
- bakteriologik nazorat natijalarini hisobga olish jurnalini yuritishni;
- xujjatlar to‘plamining yuritilish tartibini va rasmiylashtirishni bajara olishi;
- xonalarni kundalik tozalash;
- UB lampasi bilan zararsizlantirishni;
- sinamalar qo‘yish uchun reaktivlarni tayyorlash usullarini;
- sinamalarning natijalarini hisobga olishni;
- qabul qilingan nosteril tibbiy asbob anjomlarni va bikslarni ro‘yxatga olish;
- zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi, avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibini;
- ish jarayonida avtoklav ko‘rsatkichlarini bilishi,dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko‘rsatishni bilish.
- dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari yangilanadi;
- sinamalar qo‘yish uchun reaktivlarni tayyorlash va uning natijalarini hisobga olish ishlarini bajara olish ko‘nikmalari takomillashadi;
- shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida tashhislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, ko‘nikmalarni mustahkamlash.

3.1. “STERILIZATSIYA VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI” malaka oshirish kursi o‘quv rejasi

1	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestasiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	Kasbiy rivojlanish moduli	32	18	14		
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Infeksion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul: Shaxslar o‘rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		

2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		
2.1	Modul: Tibbiyotda zamonaviy zararsizlantirish va antiseptika usullari	18	8	10		
2.2	Modul: Sanitariya epidemiologiya xizmati va tartiblariga oid me'yoriy xuquqiy hujjatlar.	18	10	8		
2.3	Modul: Avtoklav turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Ish jarayonida avtoklav ko'rsatkichlari.	20	8	12		
2.4	Modul: Modul: Markaziy zararsizlantirish bo'limlarida asbob-anjomlarni zararsizlantirish va texnika havfsizligi qoidalari.	18	6	12		
2.5	Modul: Zararsizlantirish bo'limlarida avariya holatlarida hamshira taktikasi. Kasbiy zararlanishni oldini olish.	6	2	4		
2.6	Modul: Tibbiy asbob -anjomlar, bog'lov materiallari va boshqa jihozlarni zararsizlantirish, tahlil qilish.	18	8	10		
2.7	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fan moduli	4			4	
4.0	Attestasiya	4				4
	Jami:	144	62	74	4	4

“Sterilizatsiya va texnika xavfsizligi” malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv modullarining mazmuni

1.1.Modul.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor

vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati. Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy sug‘urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma’lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma’lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul. Infekcion nazorat.

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epidemiologiya sohasida qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o‘tkazishda o‘rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o‘ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o‘ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalaniish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma’lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4.Modul: Shaxslar o‘rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat

Jamiyat va bemorning salomatligi yo‘lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko‘rsatish. Bemorga diqqat e’tibor va g‘amxo‘rlik bilan

munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an'analarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Bemorning ehtiyojlarini baholash. Shaxsiy chegaralarni hurmat qilish. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari

1.5. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish

2.1. Modul: Tibbiyotda zamonaviy zararsizlantirish va antiseptika usullari

Aseptika va antiseptika to'g'risida tushuncha, uning ahamiyati. Aseptikaning va antiseptikaning turlari. Zararsizlantirish jarayoni. Dezinfeksiyalash tushunchasi. Zamonaviy dezinfeksiyalash vositalarini ishlatish qoidalari. Dezinfeksiyalovchi eritmalarni tayyorlash tartibi. Zararsizlantiruvchi vositalar bilan ishlaganda havfsizlik choralari. Xodimlarni shaxsiy himoyasiga bo'lgan talablar. Zararsizlantirish bo'limida joriy va mukammal tozalash qoidalari va ularning ahamiyati. Zararsizlantirishdan oldin tozalash usullari. Yuvuvchi eritmani tayyorlash qoidalari. Tibbiy asbob-anjomlarni qo'l bilan olti bosqichli yuvish afzalliklari va kamchiliklari. Zamonaviy ultratovush apparatida yuvish tartibi. Zararsizlantirish va uning turlari. Gazli sterilizatsiya. Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullari. Zararsizlantirish xonasida texnika havfsizligi koidalari. Ultrafiolet nurlanish, past va yuqori haroratli sterilizatsiya, kimyoviy sterilizatorlar, keng ta'sir doirasiga ega antiseptik moddalar va *biosurfaces* texnologiyalarining joriy etilishi.

2.2. Modul: Sanitariya epidemiologiya xizmati va tartiblariga oid me'yoriy huquqiy hujjatlar.

Markaziy sterilizatsiya bo'limlarida ishlaydigan tibbiy xodimlarga qo'yiladigan talablar, ularning huquq va vazifalari. Sterilizatsiya ishlariga oid me'yoriy huquqiy

xujjatlar. №0342-sonli O‘zR SanQvaM-2017 yil va №0365-19O‘zRSanQ va M mohiyati. DPM shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olishda o‘rni.Bo‘limlardan qabul qilingan nosteril tibbiy asbob-anjomlar va bikslarni ro‘yxatga olish jurnali. Zararsizlantirish oldi tozalov ishlarini xisobga olish jurnali.Bug‘li va issiq xavoli sterilizatorning ishini va tarqatilgan steril bikslarni xisobga olish jurnali. Bakteritsid lampaning ishlashini va mukammal tozalov ishlarini ro‘yxatga olish jurnali. Zararsizlantirilganlikka tekshirish bo‘yicha bakteriologik nazorat natijalarini xisobga olish jurnali. Bo‘limlarda steril biksni ochgandan so‘ng belgilangan va ichki test-indikatorlarni yopishtirilgan ro‘yxat jurnallarining yuritilishi.

2.3.Modul. Avtoklav turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Ish jarayonida avtoklav ko‘rsatkichlari.

Avtoklav turlari, tuzilishi va ishlash tartibi. Gorizontaal va vertikal avtoklavlar, ishlash prinsipi. Gravitatsion va forvakuumli avtoklavlar. Avtoklavdan foydalanish umumiy qoidalari. Avtoklavlarni qabul qilish, o‘rnatish va turli qo‘rsatkichlar bo‘yicha sinash. Monometr va havfsizlik klapanlariga qo‘yilgan talablar. Avtoklav kamerasidagi haroratini aniqligini tekshirish. Avtoklavda ishlash jarayonida harorat, bosim, sterilizatsiya vaqti, bug‘ning to‘yinishi darajasini qat‘iy nazorat qilish. Sterilizatsiya kamerasining germetik holatini tekshirish. Avtoklavda ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Avtoklavlarning pasporti va metriologiyasining ahamiyati. Avtoklavlar o‘rnatilgan xonadan foydalanish tartibi, ehtiyot chora va tadbirlari, sanitar-gigiyenik qoidalari. Sterilizatsiya ishining bajarilish tartib va qoidasi, texnika xavfsizligi qoidalari.Avtoklav bilan ishlash va uni ishlatishda tibbiyot hamshirasining lavozimlik burchlari.

2.4. Modul: : Markaziy zararsizlantirish bo‘limlarida asbob-anjomlarni zararsizlantirish va texnika havfsizligi qoidalari.

Davolash-profilaktika muassasalari markaziy sterilizatsiya bo‘limiga qo‘yilgan sanitar-gigiyenik talablar. DPM larda markaziy zararsizlantirish bo‘limi.O‘zR SanQvaM № 0278-09 meyorlari asosida talab etilgan bino, xonalar ajratilishi va maydonlari. MSBda ishlatilgan va dastlabki tozalangan asboblarni qabul qilinishi, asboblarni yuvilishi, jamlanishi, sterilizatsiya qilinishi va sterillangan materiallar davolash bo‘limlariga yuborilishi tartibi. Yuqumsizlantirish zonalarini va ularning ahamiyati. Yuqumsizlantirilgan zonaning tarkibiy qismlari. Yuqumsizlantirilgan matolar manbai, taqsimlash, ekspeditsiya xonalari va ularning vazifalari.

2.5. Modul: Zararsizlantirish bo‘limlarida avariya holatlarida hamshira taktikasi. Kasbiy zararlanishni oldini olish.

Zararsizlantirish bo'limlarda asbob-uskunalarni yig'ish, tozalash, dezinfeksiya qilish, sterilizatsiya jarayonlarini nazorat qilish. Zararsizlantirilganlik sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar. Avtoklav ichida ortiqcha xavoning qolib ketishi. Zarur haroratni xosil bo'lmasligi. Biks ichiga tibbiy vositalarni meyoridan ortiq joylashtirilishi. Avtoklavga ishlatiladigan suvlar. Avtoklavni texnik ko'rik va gidravlik sinovdan o'tkazish. Avtoklav ichki qismlarini texnik ko'rikdan o'tkazish. Monometr va havfsizlik klapanlariga qo'yiladigan talablar. Muolaja xonasida ish vaqtida havfsiz inyeksiya koidalariga rioya qilish. Kasalxona ichi infeksiyasi xaqida tushuncha. Kasalxona ichi infeksiyasitavsifi va epidemiologiyasining o'ziga xos tomonlari. Muolaja xonasida sanitar-epidemiologik rejim. Markazlashtirilgan zararsizlantirish bo'limida "Sterillangan zona" xonasining vazifasi va unga qo'yiladigan talablar. Xonaning o'ziga xos jihozlanishi. Xona havosini zararsizlantirish tartib va qoidasi. Avariya holatlari — teri shikastlanishi, igna sanchilishi, kimyoviy moddalar bilan kontakt, issiq bug' yoki avtoklav jarohatlari. Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish, xavfsiz mehnat texnologiyalariga rioya qilish, avariya holatlarida tezkor va standart algoritmlar bo'yicha harakat qilish.

2.6. Modul: Tibbiy asbob -anjomlar, bog'lov materiallari va boshqa jihozlarni zararsizlantirish, natijalarini tahlil qilish.

Tibbiyot muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish, xavfsiz muhit yaratish va bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirishda tibbiy asbob-anjomlar, bog'lov materiallari va boshqa jihozlarni to'g'ri zararsizlantirish jarayoni. Metall asboblari, shisha idishlar, bog'lov vositalarni zararsizlantirish usullari. Optik tibbiy asboblarni zararsizlantirish. Dorixonada foydalaniladigan vositalar va dorilarning sterilizatsiyasi. Stomatologik asbob-anjomlarni turlari va ularni zararsizlantirish hususiyatlari. Termolabil va polimer vositalarni dezinfeksiyalash va sterillash usullari. Endoskoplar, narkoz apparatlari, bronxoskoplar, laringoskoplar, rezina vositalarni dezinfeksiyalash va sterillash usullari. Steril va nosteril endoskopik aralashuvlarda zararsizlantirish bosqichlari. Zamonaviy zararsizlantirish nisfatini fizikaviy, kimyoviy, biologik tekshirish usullari.

Har bir tibbiy jihozning xususiyatiga qarab ularni tozalash, dezinfeksiya, sterilizatsiya, qadoqlash, saqlash. Zamonaviy tibbiyotda asboblari bilan ishlashda kimyoviy, fizik va mexanik zararsizlantirish usullarini qo'llash. Sterilizatsiya natijalarini tahlil qilish, fizik ko'rsatkichlar, kimyoviy indikatorlar va biologik testlardan foydalanish.

2.7. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida

yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

4.DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi.

Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'kuv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI

4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-xuquqiy xujjatlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining buyruq va meyoriy hujjatlari.

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfektsiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish. 2022 yil

2. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun o'quv-dasturi qo'llanma. -2023y

3. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun o'quv uslubiy qullanma. Tashkent.2023. y

4. Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T.Yu «Abu Ali ibn Sino», 2023

5. O'zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlari va gigienik normativlari. O'zR SanQvaM № 0365 -19

6. Tibbiy anjom-asboblarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va meyorlari. O'zR SanQvaM № 0365

7. «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish.
8. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha oʻrta tibbiyot xodimlari uchun oʻquv-dasturi qoʻllanma. -2024y
9. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha oʻrta tibbiyot xodimlari uchun oʻquv uslubiy qullanma. Tashkent. 2022.y
10. Oʻzbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlari va gigienik normativlari. OʻzR SanQvaM № 0365 -19
11. Tibbiy anjom-asboblar va buyumlarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va meyorlari.
12. OʻzR SanQvaM № 0365 -19.Irgashev Sh.B. Formirovanie zdorovogo obraza jizni ili sanitarno prosvetitelnaya rabota. Jurnal «Organizatsiya i upravlenie zdravooxraneniem № 1 2.2023
13. Irgashev Sh.B. Valeologicheskie printsipi ratsionalnogo pitaniY. Tashkent Irgashev Sh.B., Tursunxodjaeva L.A., Pervichnaya profilaktika narkozavisimosti sredi uchashixsya obrazovatelnix shkol, Uchebnoe – metodicheskoe posobie dlya uchiteley, Ministerstvo zdravooxraneniya Respublike Uzbekistan, Tashkent 2022.
14. T.Y. Umarova va boshq.” Xamshiralik ishi” Toshkent-2023
V.E.Avakov O.V. Churilova A.M.Sharipov“Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi.” 2023g.
15. Y.Allayorov Y.Tojiboev “Favkulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”
16. V.K.Gostishev – Obshaya xirurgiya, 2023.
17. S.V.Petrov – Obshaya xirurgiya, 2022
18. U.O.Aripov, Sh.I. Karimov – Umumiy xirurgiY. T. , Toshkent, 2022

4.3.2. Elektron taʼlim resurslari

<http://www.ziynet.uz>

<http://www.edu.uz>

<http://www.pedagog.uz>

www.tma.uz,

www.lex.uz

<https://ru.pinterest.com/vkhamidov/>

<https://www.coursera.org/>

5.YaKUNIY ATTESTATSIYA

5.1.Yakuniy attestatsiyaga qoʻyiladigan talablar,oʻtkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrugʻi 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish taʼlim

muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.